



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

XORIJIY DAVLATLARDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA LEKSIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

G’anibayeva Bayyan Sharipbay qizi

ChDPU doktaranti

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0007-8936-1302>

bayanganibaeva96@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ilm-fan va ta’lim rivojlanishida tilning ahamiyati, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining leksik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha xalqaro tajriba yoritiladi.

Tayanch iboralar: til, ta’lim, pedagogika, tushuncha, so’z, predmet, nutq, video materiallar, audiolar, interaktiv mashqlar, interfaol metodlar

Annotation:

This article highlights the importance of language in the development of science and education, the ongoing reforms in Uzbekistan, and the international experience in shaping the lexical skills of primary school students.

Keywords: language, linguistics, pedagogy, concept, word, subject, speech, video materials, audio materials, interactive exercises, interactive methods

Аннотация:

В данной статье освещается значение языка в развитии науки и образования, проводимые реформы в Узбекистане, а также международный опыт в формировании лексических навыков учеников начальных классов.

Ключевые слова: язык, языкознание, педагогика, понятие, слово, предмет, речь, видеоматериалы, аудиоматериалы, интерактивные упражнения, интерактивные методы



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

Hozirgi kunda mamlakatimiz yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ygan bo‘lib, davlat dasturlari asosida barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyati, ayniqsa, ilm-fan va ta’limning rivojlanish darajasi hamda global raqobatbardoshlikni ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida til va so‘z boyligini oshirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun leksik bilimlarni shakllantirish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Til jamiyatda aloqani ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi. So‘zlarni o‘rganish leksikologiya sohasi orqali amalga oshiriladi. Leksikologiya – bu so‘zlarning tarkibini, ularning ma’nosini va ular o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadigan ilmiy soha.¹ Boshlang‘ich ta’limda leksik bilimlarni rivojlantirishda leksikologiya fanining roli beqiyosdir. O‘quvchilarni yangi so‘zlar bilan tanishtirish, ularni turli kontekstlarda qo‘llash, so‘z boyligini kengaytirish jarayonlari, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda juda muhimdir. So‘zlar o‘quvchilarga nafaqat muloqot qilish imkoniyatini beradi, balki ularning dunyoqarashini kengaytiradi. O‘quvchilarni tilni o‘rganishga jalg qilish va ularda so‘zлarni anglab, to‘g‘ri ishlatalish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning faoliyatiga bog‘liqdir.

Dunyo miqyosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining leksik bilimlarini rivojlantirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Beck, McKeown va Kucanlarning “Bringing Words to Life: Robust Vocabulary Instruction” (2002) kitobida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish uchun samarali usullar va strategiyalar tavsiflangan. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yosh bolalar uchun darsliklarda uchraydigan so‘zlar yetarli bo‘lmasi mumkin, shuning uchun ularga maxsus o‘qish materiallari orqali yangi so‘zлarni o‘rgatish zarur. Ushbu kitobning to‘rtinch bobida boshlang‘ich sinflarda leksikan shakllantirish bo‘yicha tizimli yondashuvlar ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yosh bolalarning til rivojlanishi uchun odatiy darsliklarda uchraydigan so‘zlar yetarli bo‘lmasi mumkin. Shuning uchun o‘quvchilarga yangi so‘zлarni maxsus o‘qish materiallari orqali o‘rgatish zarurati tug‘iladi.

¹ M. Hamroyev. “Ona tili” Toshkent 2007. 34-b.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

Ushbu kitobning muhim xulosalaridan biri shundaki, agar so‘z bolalar uchun notanish bo‘lsa-yu, lekin ular ushbu tushunchani anglab, kundalik suhbatda foydalanishlari mumkin bo‘lsa, u yaxshi o‘rgatiladigan so‘z sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yosh bolalar uchun hafta davomida muvaffaqiyatlari tarzda o‘rgatilishi mumkin bo‘lgan so‘zlar soni maksimal 10 taga yetishi mumkin. Bu borada o‘qituvchilar sinf sharoitlari va vaqt chegaralariga qarab o‘rgatiladigan so‘zlar sonini belgilashi lozimligi ta’kidlanadi.²

Leksik bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha yana bir muhim manba bu Michael F. Gravesning “The Vocabulary Book: Learning and Instruction” (2006) kitobidir. Ushbu asarda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish uchun to‘rtta asosiy tamoyil ilgari surilgan: kengaytirilgan so‘z o‘rganish muhiti yaratish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘z o‘rgatish, o‘quvchilarni mustaqil so‘z o‘rganishga undash va ularning so‘zlardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish. Gravesning fikriga ko‘ra, bolalar yangi so‘zlarni faqatgina yodlab emas, balki ularni kontekstda tushunib, faol foydalanish orqali mukammal o‘zlashtiradilar. U shuningdek, leksik bilimlarni oshirishda interaktiv metodlarning ahamiyatini ta’kidlab, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda o‘yinlar, rolli o‘yinlar va vizual tasvirlardan foydalanish muhimligini qayd etadi. Graves o‘quvchilarning yangi so‘zlarni faqat yodlab emas, balki tushunib va amalda qo‘llab o‘zlashtirishining muhimligini ta’kidlaydi va so‘zlarni mustahkamlash uchun to‘rtta asosiy tamoyilni ilgari suradi:

1. Kengaytirilgan so‘z o‘rganish muhiti yaratish. So‘z o‘rganish muhitining kengaytirilishi o‘quvchilarga yangi so‘zlarni faqat sinfda emas, balki turli joylarda va turli manbalardan o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning so‘z boyligini yanada kengaytiradi. So‘zlar faqat darslikda uchramasligi kerak, balki o‘quvchilar turli manbalar, masalan, kitoblar, maqolalar, interfaol vositalar va muhit orqali o‘rganishlari zarur. Bu tamoyil o‘quvchilarga o‘z bilimlarini kengaytirish va har xil kontekstlarda so‘zlardan foydalanishni o‘rganishga yordam beradi. Kengaytirilgan so‘z o‘rganish muhiti yaratish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarni interfaol o‘quv materiallari bilan tanishtirishi, turli janrlardagi adabiyotlar va boshqa resurslardan foydalanishni rag‘batlantirishi kerak.

² Beck, McKeown va Kucan “Bringing Words to Life: Robust Vocabulary Instruction” (2002)



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

Masalan, video materiallar, audiolar, interaktiv mashqlar yordamida o‘quvchilarga yangi so‘zlar va iboralarni o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

2. Gravesning ikkinchi tamoyili so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Bu tamoyil o‘quvchilarga yangi so‘zlarni aniq va tushunarli tarzda, ma’lum kontekstda va maqsadga yo‘naltirilgan holda o‘rgatishni nazarda tutadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish, o‘quvchilarga so‘zning ma’nosi, ishlatilishi va konteksti haqida chuqurroq tushuncha beradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga yangi so‘zlarni faqatgina yodlatish bilan cheklanmasdan, ularga so‘zning ma’nosini tushuntirib, uni amalda qanday ishlatilishini ko‘rsatishi lozim. Masalan, o‘quvchiga yangi so‘zlar bilan bog‘liq misollar keltirish, so‘zlarni gaplarda ishlatib ko‘rsatish, ularni turli vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatish kerak. Bu metod o‘quvchilarning so‘zlarni o‘zlashtirish va ularni amalda ishlatishda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

3. O‘quvchilarning mustaqil so‘z o‘rganishini rag‘batlantirish. Bu tamoyil o‘quvchilarga o‘z bilimlarini kengaytirish, yangi so‘zlarni o‘rganish va o‘zgartirishda mustaqil ravishda harakat qilish imkoniyatini beradi. Bu o‘quvchilarning o‘rganish jarayoniga yanada faolroq kirishishini va o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashni ta’minlaydi.

O‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantirish uchun o‘qituvchilar ularga turli o‘quv manbalarini topish, yangi so‘zlarni o‘rganish uchun maxsus topshiriqlar berish, o‘qish vaqtini samarali tashkil etish va o‘quvchilarni o‘z-o‘zini tekshirishga undashlari kerak. Masalan, o‘quvchilarga yangi so‘zlar haqida qo‘srimcha materiallar, testlar, so‘zlar bilan bog‘liq o‘yinlar va interfaol mashqlar orqali mustaqil ravishda ishlashni ta’minlash mumkin. Bu ularning mustaqil ravishda o‘rganishiga yordam beradi.

4. So‘zlarni turli kontekstlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘quvchilar yangi so‘zlarni faqat yodlabgina emas, balki ularni turli vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganishlari zarur. Bu tamoyil o‘quvchilarning o‘rganilgan so‘zlarni aniq va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda ishlatish imkoniyatini beradi.³

³ Michael F. Graves “The Vocabulary Book: Learning and Instruction” (2006)



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

O‘quvchilarni so‘zlarni turli kontekstlarda qo‘llashga o‘rgatish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatlar yoki o‘quv vaziyatlari asosida so‘zlardan foydalanishni ta’minlashlari kerak. Misol uchun, o‘quvchilarga bir nechta misollar berib, yangi o‘rganilgan so‘zni har xil kontekstlarda qanday ishlatishni ko‘rsatish mumkin. Bu metod o‘quvchilarga so‘zlarni o‘zlashtirishda va kundalik nutqda ishlatishda yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining leksik bilimlarini oshirishga qaratilgan muhim tadqiqotlardan yana biri Linda Hougen va Susan Smarttning “Word Nerds: Teaching All Students to Learn and Love Vocabulary” (2012) kitobidir. Ushbu kitobda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish uchun innovatsion va qiziqarli usullar taqdim etilgan. Hougen va Smarttning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar so‘zlarni eslab qolish uchun ularni real hayotiy tajriba bilan bog‘lashlari muhim. Kitob mualliflari so‘z boyligini oshirish uchun ijtimoiy muloqot va o‘yinlardan foydalanish samaradorligini ta’kidlaydilar. Masalan, interaktiv kartalar, so‘zlar bilan bog‘liq jismoniy harakatlar va dramatik tasvirlash usullari yordamida bolalarning so‘zlarni chuqur o‘zlashtirishiga erishish mumkin.

Buyuk Britaniyada leksik ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar til o‘rgatish jarayonida matnlarni tushunish va muloqotni rivojlantirishga qaratilgan. Jean Aitchison tomonidan yozilgan “Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon” (2012) asarida inson miyasi so‘zlarni qanday o‘zlashtirishi va qay tarzda qayta ishlashi haqida fikr yuritiladi. Aitchison tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, so‘zlarni o‘rganish nafaqat ularning ma’nolarini bilish, balki ularni muloqotda faol ishlatish orqali rivojlantiriladi.

Dunyoning eng ilg‘or ta’lim tizimlaridan biri hisoblangan Finlandiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirishda o‘ziga xos metodlardan foydalanadi. Pirjo Aunio va Minna Hannula-Sormunen tadqiqotlarida bolalarning lug‘at boyligini oshirish uchun vizual materiallar va interfaol metodlardan foydalanish muhimligi ta’kidlangan. Ushbu yondashuvlar Fin ta’lim tizimida keng qo‘llanilib, bolalarning o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Finlandiyada shuningdek, Raija Rasanen tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida ko‘rsatildiki, bolalarning lug‘at boyligini oshirish uchun ularning oilaviy



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

muhiti va til bilan bog‘liq sharoitlari ham katta rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar natijalari fin bolalarining so‘z boyligi oilaviy suhbatlar, kitob o‘qish va interfaol o‘yinlar orqali shakllanishini tasdiqlaydi.

Britaniyalik tadqiqotchilar, xususan, Sue Ellis va Elspeth McCartney o‘z izlanishlarida bolalarning so‘z boyligini oshirish uchun hikoyalash va rolli o‘yinlar usulidan foydalanish samaradorligini ko‘rsatib o‘tganlar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilar hikoyalar orqali yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtiradi va ularni kundalik nutqida qo‘llay boshlaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan beri ilm-fan va ta’lim sohasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan, 2014 yil “Sog‘lom bola yili” deb e’lon qilinib, davlat dasturlarida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan edi. Ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun o‘quv dasturlari va darsliklar tanqidiy tahlil qilindi. Prezident Sh. Mirziyoyev o‘zbek tilining davlat tili sifatida qabul qilinganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tadbirda o‘zbek tilini, shuningdek, O‘zbekistonda yashovchi har bir millatning ona tilini chuqr o‘rgatish muhimligini ta’kidlab o‘tgan.

2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasiga muvofiq, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida zamonaviy ta’limning ilg‘or metodlari qo‘llanilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilmiy ko‘nikmalarini oshirish uchun ularning leksik bazasini boyitish asosida qabul qilingan.

Hozirgi kunda O‘zbekistondagi ta’lim muassasalari nafaqat o‘zbek tilida, balki qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida ham faoliyat yuritmoqda. Bu esa ko‘p tillilik muhitida o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonlarini chuqr o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish kelajak avlodning nutqini aniq va ravon shakllantirish, ularning ona tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida boshlang‘ich ta’limda leksik bilimlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Ushbu masala bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar o‘quvchilarning lingvistik tafakkurini kengaytirish va ularning ta’lim jarayoniga yanada samarali



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th March, 2025

yondashishiga xizmat qiladi. Graves, Hougen va Smartning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish uchun faqatgina darslik materiallari bilan cheklanmasdan, interaktiv va ijodiy yondashuvlardan foydalanish lozim. Shu sababli, zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beck, McKeown va Kucan “Bringing Words to Life: Robust Vocabulary Instruction” (2002)
2. Jean Aitchison “Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon” (2012)
3. Linda Hougen va Susan Smart “Word Nerds: Teaching All Students to Learn and Love Vocabulary” (2012)
4. M. Hamroyev. “Ona tili” Toshkent 2007. 34-b.
5. Michael F. Graves “The Vocabulary Book: Learning and Instruction” (2006)